

O‘ZBEKISTONNING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A‘ZO BO‘LISHI: MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR**Xolmurodov Otabek Alimardonovich***Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti**“Xalqaro munosabatlar” fakulteti 2-bosqich talabasi**E-mail: otabekalimardonovich@gmail.com*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Jahon savdo tashkilotining bugungi kundagi ahamiyati va a‘zo davlatlar uchun bu tashkilot qanday imkoniyatlar yaratib bera olishi haqida batafsil ma‘lumot berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonning tashkilotga a‘zo bo‘lishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar boshqa davlatlar tajribasini o‘rgangan holda tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *JST (Jahon savdo tashkiloti), proteksionizm, GATT (General Agreement on Tariffs and Trade (Tariflar va savdo bo‘yicha bosh kelishuv)), bozor iqtisodiyoti, eksport, import.*

ЧЛЕНСТВО УЗБЕКИСТАНА ВО ВСЕМИРНОЙ ТОРГОВОЙ ОРГАНИЗАЦИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ

Аннотация. *В этой статье представлена подробная информация о значении Всемирной торговой организации и о том, какие возможности эта организация может создать для государств-членов. Также проанализированы проблемы, которые могут возникнуть в результате членства Узбекистана в организации, путем изучения опыта других стран.*

Ключевые слова: *ВТО (Всемирная торговая организация), протекционизм, GATT (Генеральное соглашение по тарифам и торговле), рыночная экономика, экспорт, импорт.*

MEMBERSHIP OF UZBEKISTAN IN THE WORLD TRADE ORGANIZATION: PROBLEMS AND OPPORTUNITIES

Abstract. *This article provides detailed information about the importance of the World Trade Organization today and what opportunities this organization can create for the member states. Also, problems that may arise as a result of Uzbekistan's membership in the organization have been analyzed by studying the experience of other countries.*

Key words: *WTO (World Trade Organization), protectionism, GATT (General Agreement on Tariffs and Trade), market economy, export, import.*

Bugungi kunda har bir mamlakat uchun iqtisodiy rivojlanishdan-da muhimroq bo'lgan ustuvor vazifa mavjud emas. Shu jumladan, O'zbekiston ham so'nggi yillarda mamlakatning iqtisodiy holati va tizimini yaxshilash, raqobatbardosh ochiq bozor sharoitini yaratish yo'lidan bormoqda. Aynan shu maqsadlarga erishish uchun xalqaro miqyosda olib borilayotgan hamkorlik juda ham muhim ahamiyatga ega. Ayni damda dunyodagi eng katta savdo-iqtisodiy tashkilot hisoblangan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish O'zbekistonning kun tartibida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. 2023-yil 2-iyunda imzolangan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 181-sonli qaroriga ko'ra Prezident Administratsiyasida O'zbekiston Prezidentining Jahon savdo tashkiloti masalalari bo'yicha maxsus vakili lavozimini joriy etish hamda 2023-yilning 1-iyulidan Jahon savdo tashkiloti qoida va me'yorlariga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishni taqiqlash bu tashkilotning O'zbekiston uchun naqadar katta ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.[1]

Jahon savdo tashkiloti 1995-yil 1-yanvar sanasidan kuchga kirgan bo'lsa-da, tashkilot tarixi ancha uzoqqa borib taqaladi. 1947-yil Kubaning Gavana shahrida Xalqaro savdo va ishsizlik masalalari bo'yicha Birlashgan Millatlar Tashkiloti konferensiyasi bo'lib o'tadi. Bu konferensiyada Xalqaro valyuta fondi hamda Jahon banki bilan hamkorlik asosida xalqaro savdoni yo'lga qo'yuvchi tashkilot tuzish g'oyasi ilgari surildi. Konferensiya yakunida esa Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (GATT, General Agreement on Tariffs and Trade) qabul qilindi. 1948-yil 1-yanvardan boshlab ushbu kelishuv kuchga kirdi. Kelishuv a'zo mamlakatlar o'rtasida erkin va ochiq savdoni yo'lga qo'yish, turli huquqiy hamda boj to'siqlarini olib tashlash bo'yicha qarorlar qabul qilish funksiyasini bajarib keldi. 1986-yilgi Urugvay konferensiyasida kelishuv asosida xalqaro tashkilot shakllantirish masalasi ko'tarila boshlandi. Uzoq davom etgan bahs-munozaralar natijasida 1994-yil 15-aprel kuni 123 mamlakat ishtirokida Marrakesh kelishuvi imzolandi. Kelishuv asosida 1995-yil 1-yanvardan boshlab yangi tashkilot – Jahon savdo tashkiloti kuchga kirdi.[2]

Jahon savdo tashkiloti o'z faoliyatini tashkil etishda qator kelishuvlarga asoslanadi. Jumladan, GATT(General Agreement on Tariffs and Trade), GATS(General Agreement on Trade in Service), TRIPS(Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights), SPS(Agreement on the Application of Sanitary and Phytosanitary Measures) kabi kelishuvlarning Jahon savdo tashkiloti faoliyatining huquqiy asoslarini tashkil etadi.[3] Tashkilotning asosiy 5 funksiya mavjud bo'lib, bular:

1. Tovar va xizmatlar bo'yicha xalqaro savdo qoidalarini joriy qilish va doimiy takomillashtirib borish;
2. Proteksionistik savdo siyosati natijasida yuzaga kelgan xalqaro savdo aloqalarining buzilish holatlarini kamaytirish bo'yicha muzokaralar o'tkazish;

3. A`zo davlatlar o`rtasidagi savdo bilan bog`liq nizolarni hal qilish mexanizmlarini ishlab chiqish;

4. Rivojlanayotgan va kam rivojlangan a`zo davlatlar uchun alohida savdoga oid siyosat yuritish bo`yicha takliflar ishlab chiqish hamda kuzatishlar olib borish;

5. Savdo bilan bog`liq masalalar, shu jumladan, savdoga yordam berish bo`yicha boshqa xalqaro tashkilotlar bilan muvoqlashtiruv jarayonlarini amalga oshirish.

Yuqorida keltirib o`tilgan funksiyalarni bajarish jarayonida tashkilot tomonidan bojxona, antidemping siyosati, intellektual mulkni himoya qilish, yashil iqtisodiyotni ta`minlash, investitsiyaviy muhit yaratish kabi vazifalar ham amalga tatbiq etib boriladi.

Bugungi kunda 164 ta a`zo(Afg`oniston 2016-yil 29-iyulda 164-a`zo mamlakatga aylandi) hamda 25 ta kuzatuvchi(Turkmaniston 2020-yilda 25-kuzatuvchi mamlakatga aylandi) davlatga ega ushbu tashkilot butun dunyo eksport-import aylanmasining 98%ini o`z ichiga oladi.[2] Tashkilotga a`zo bo`lish o`ziga xos yangicha tartibotga asoslangan dunyoga qadam bosishni anglatadi. Chunki, tashkilotga a`zo davlat boshqa a`zo davlatlar bilan teng huquqlilik asosida savdo qilish, tovar ayirboshlash imkoniyatiga ega bo`ladi. Shuningdek, tashkilot doirasida o`rnatilgan past foizdagi boj stavkalari o`zaro savdo aloqalarini olib borishda to`siqlarni kamaytiradi. Jahon savdo tashkilotining 28 yillik faoliyati tahlil qilinsa, a`zo davlatlarning 79%ida savdo ko`rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan, eksport hajmi ancha oshgan. A`zolik natijasida eksportning o`rtacha o`sish ko`rsatkichi 35% ni tashkil etgan bo`lsa, eng yuqori natija Meksikada(129% o`sish), Kanadada(106% o`sish), AQShda(94% o`sish) kuzatildi. Eng past ko`rsatkich sifatida Boltiqbo`yi mamlakatlaridan Litvada(4% o`sish) qayd etildi.[2] Qolgan 21% mamlakatlar, asosan sobiq kommunistik davlatlarda Jahon savdo tashkilotiga a`zo bo`lish jarayoni rejali-boshqaruv iqtisodiyotidan bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayoni bilan bir vaqtga to`g`ri keldi. Ikki jarayonning ayni bir vaqtda ko`plab o`zgarishlarni talab qilishi natijasida, Qirg`iziston, Moldova, Tojikiston, Ukraina, Bolgariya, Rossiya, Sloveniya, Kuba kabi mamlakatlarda “shok-terapiya” amaliyotini yuzaga keltirdi. Shu bilan bir qatorda, JSTga a`zolik natijasida import tovarlariga qo`yiladigan qo`shimcha tariflarning 15%ga qisqarishi yuz berdi.[2] Bu esa Rossiya, Ukraina kabi SSSR parchalanishi natijasida monopolistik kapitalizm o`chog`iga aylangan davlatlarga juda kuchli raqobat muhitining kirib kelishiga sabab bo`ldi. Natijada, ayrim mahalliy ishlab chiqaruvchilar kasodga uchradi yoki turli xorijiy kompaniyalar qo`liga o`tib ketdi. Shunday bo`lsa-da, vaqt o`tishi bilan iqtisodiy holat barqarorlashdi.

Tashkilotga a`zo bo`lish o`ziga xos uzoq muddatli 3 bosqichdan iborat jarayonni o`z ichiga oladi. Ma`lum bir davlat tomonidan a`zolikka ariza berilgach, 1-bosqichda mamlakat ichki qonunchiligi to`liq JST talablariga muvofiqlashtiriladi. 2-bosqichda esa davogar davlat hamda tashkilot o`rtasida bandma-band muzokaralar amalga oshiriladi. Yakuniy 3-bosqichda rasmiyatchilik nuqtayi nazaridan davlatning tashkilotga a`zoligi

e`lon qilinadi. Odatda, tashkilotga a`zo bo`lish jarayoni o`rtacha 5 yil muddat talab qilsa, mamlakatdagi ichki muammolar, siyosiy rejim bilan bog`liq vaziyatlar, qonunchilikka o`zgartirish kiritishga oid shartlarning kechiktirilishi bu muddatni yanada uzayishiga sababchi bo`ladi. JSTga a`zo bo`lish uchun eng qisqa muddat(2 yil-u 10 oy) talab etgan davlat Qirg`iziston bo`lib, 1998-yil dekabrda tashkilotning to`laqonli a`zosiga aylandi. Rossiyaga esa bu maqomga erishish uchun eng uzoq muddat(19 yil-u 2 oy) sarf qilingan(2012-yil avgustda Rossiya JSTning 156-a`zosiga aylandi).[6] O`zbekiston ham mustaqillik ilk kunlaridan ushbu tashkilotga juda katta qiziqish bildirdi. 1994-yil 21-dekabrda O`zbekiston tomonidan JST a`ziligiga ariza topshirilib, ishchi guruh tuzilgan.[7] Ammo o`sha yillari kuchli proteksionistik siyosat olib borilishi hamda mamlakat ichki iqtisodiy siyosatida xususiy lashtirish jarayonlariga katta kuch sarflanayotgan bir paytda 1998-yilda Osiyoda yuz bergan iqtisodiy inqiroz mamlakatning tashqi savdoga ochilish jarayonini yana ortga surdi. 2003-yilda valyuta ayirboshlashga oid cheklovlar olib tashlanishi bilan bir qatorda savdoni erkinlashtirish sari dadil qadamlar tashlandi. 2005-yil JSTga a`zo bo`lish bo`yicha ishchi guruhning 3-yig`ilishi o`tgach, ayni o`sha yili sodir bo`lgan Andijon voqealari O`zbekiston va butun jahon, ayniqsa xalqaro moliya institutlari va inson huquqlari tashkilotlari o`rtasida munosabatlar keskin tus oldi. 2008-yil yuz bergan jahon moliya inqirozi esa O`zbekistonning kelgusidagi siyosatini batamom hal qildi.[6] Jumladan, valyuta konvertatsiyasiga jiddiy cheklovlar o`rnatildi, tashqaridan mahsulot kirishini kuchli filtr qilish va bojxona foiz stavkalarini ko`tarish amaliyotlari qo`llanildi.

2019-yildan boshlab, JSTga a`zo bo`lish masalasi yana ko`tarila boshlandi va hukumat qoshidagi ishchi guruh faoliyati jonlantirildi. 2020-yil 7-iyulda 15 yillik tanaffusdan so`ng ishchi guruhning 4-yig`ilishi tashkil etildi.[6] Tashkilotning O`zbekiston uchun ahamiyati naqadar dolzarb va ulkan ekanligi qayta-qayta ta`kidlana boshlandi. 2023-yil 14-aprel kuni mamlakatda iqtisodiy holatni yaxshilashga qaratilgan yig`ilishda Prezident Shavkat Mirziyoyev: “Kelgusi 3 yilda tayyor mahsulot eksportini 2 baravar oshirishni reja qilganmiz. Bunga erishishning birdan bir yo`li – JSTga a`zo bo`lish. Bu 164 davlat bilan adolatli savdo tizimini yo`lga qo`yish va barqaror bozorlarni yaratish imkonini beradi”, - deya tashkilotga a`zo bo`lish jarayonini jadallashtirishga doir qator ko`rsatma va vazifalarni belgilab berdi.[4]

Tashkilotga a`zolik O`zbekistonga olib kelishi kutilayotgan asosiy foydali natijalari tahlil qilinadigan bo`lsa, birinchi navbatda, bu katta bozorga kam foizli shartlar asosida chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Birgina GSP+ dasturining o`zi O`zbekistonning Yevropa Ittifoqi hamda Buyuk Britaniyaga eksport hajmi 1,5 baravarga oshishiga olib keldi.[4] JSTga a`zolik esa O`zbekistonning asosiy tarmoqlarida eksport salohiyatining oshishiga va yangi savdo sheriklarining paydo bo`lishiga olib keladi. Ikkinchidan, O`zbekiston ichki hayotida raqobat muhiti yuzaga kela boshlaydi. Uzoq yillar davomida monopollashgan sohalarda yangi “o`yinchi”larning paydo bo`lishi natijasida kompaniyalar o`rtasida sifat, xizmat ko`rsatishda qulaylik hamda narxlar masalasida

bellashuv shakllanadi. Ammo, shu oʻrinda yana bir muhim jihatni taʼkidlab oʻtish kerakki, baʼzi hollarda bu jarayon mamlakatdagi milliy ishlab chiqarishning inqiroziga olib kelishi ham mumkin. Masalan, Estoniya JSTga aʼzo boʻlgach qishloq xoʻjaligi tizimi juda falaj holatga tushib qolgan. Sababi shundaki, Germaniya, Polsha kabi qishloq xoʻjaligi rivojlangan davlatlarning sifatli hamda arzon tovarlari Estoniya bozorini egallay boshladi.[5] Natijada, Estoniyada katta dala maydonlari boʻshab qoldi hamda qishloq xoʻjaligi sohasida ishlaganlar yoki ishsizga aylandilar, yoki oʻz faoliyat sohaslarini oʻzgartirdilar. Uchinchidan, tashkilotga aʼzolik doirasida yangicha standarddagi qonunchilikning shakllanishi, bozorning liberallasuvi Oʻzbekistonning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshiradi. Oʻz navbatida, investitsiyalarning doimiy oqimi mamlakatda ishsizlikning kamayishi, moliyaviy qudratning oshishi va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlaydi. Toʻrtinchidan, boj tariflarining tushishi mamlakatdagi tovarlar narxini tushishiga va natijada barqarorlashuviga olib keladi. Bu esa inflyatsiya darajasining meʼyorlashuviga sabab boʻladi. Beshinchidan, tashkilotga aʼzo boʻlish mamlakatdagi farovonlik koʻrsatkichiga ham yaxshi taʼsir koʻrsata oladi. Dalil sifatida shuni keltirish mumkinki, JSTga aʼzo mamlakatlarning aʼzolikdan keyingi davr mobaynida farovonlik darajasida oʻrtacha oʻsish koʻrsatkichi 4%ni tashkil etgan. Eng yuqori koʻrsatkich Irlandiyada(17% oʻsish) kuzatilgan boʻlsa, eng past koʻrsatkich Xitoyda(0.7% oʻsish) namoyon boʻldi.[2] Albatta, farovonlik koʻrsatkichiga iqtisodiy rivojlanishdan tashqari siyosiy oʻzgarishlar ham taʼsir koʻrsata oladi. Ammo Oʻzbekiston sharoitida ayni damda olib borilayotgan demokratizatsiya jarayoni JSTga aʼzolik natijasida kutilayotgan iqtisodiy rivojlanish bilan birgalikda farovonlik koʻrsatkichining keskin yuqorilishiga ishonch hosil qilish mumkin.

Jahon savdo tashkiloti, shak-shubhasiz, har bir aʼzo-davlat uchun keng va teng imkoniyatlar yarata oladi. Ammo, barcha mamlakatlarda ham bu imkoniyatlardan toʻgʻri foydalana olish salohiyati mavjud emas. Ayrim mamlakatlarda ishchi kuchi yetishmasa, ayrimlarda resurslarning yetarli emasligi yoxud tovarlarning standartlarga javob bera olmasligi muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Oʻzbekiston bugungi kunda yetarli iqtisodiy, tabiiy resurslarga ega ekanligi inobatga olinsa, bu tashkilotga aʼzolik faqatgina yaxshi natijalarga erishtirishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Oʻzbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga aʼzo boʻlish jarayonini jadallashtirishga doir qoʻshimcha chora tadbirlar toʻgʻrisida”gi 181-sonli qarori – 2023-yil 2-iyun (<https://lex.uz/uz/docs/6480161>)
2. Erdal Yalcin, Mario Larch, Yoto V.Yotov. Valuing the impact of the World Trade Organisation – Research Resport, 25 August 2022.

3. Nobuyuki Kato, Akira Mayama. Vizual Xalqaro Huquq (o`zbek tiliga A.Umirdinov, A.Xakimov, H.Radjapov tarjimasini) – Toshkent. Yuridik nashriyotlar publish, 2021.

4. O`zbekiston JSTga a`zo bo`ladi – 2023-yil 14-aprel <https://president.uz/oz/lists/view/6157>

5. Tojikiston JSTga kirdi: foyda va ziyonlar ehtimollari – 2012-yil 11-dekabr https://www.bbc.com/uzbek/lotin/2012/12/121211_latin_tajikistan_joins_wto

6. 28 yilga cho`zilgan jarayon. Nega O`zbekistonning JSTga a`zo bo`lishi cho`zilib ketdi? – 2022-yil 26-iyun <https://kun.uz/uz/news/2022/06/26/28-yil-nega-ozbekistonning-jstga-azo-bolishi-chozilib-ketdi>

7. https://www.wto.org/english/thewto_e/acc_e/al_ouzbekistan_e.htm